



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 26-sentabr, seshanba,
114 (23.835)-son

**KUN
HIKMATI**

Allomalarning
ulug'ligi shundaki,
ular umrining har
lahzasini foydali
ishga sarflagan

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

SZYANSU BILAN HAMKORLIK RIVOJLANADI



Xitoy Xalq Respublikasining Szyansu provinsiyasi gubernatori Syuy Kunlin boshchiligidagi delegatsiya Samarqandga tashrif buyurdi.

O'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida ko'hna Samarqandga kelgan mehmonlar dastlab viloyat hokimi Erkinjon Turdimov qabulida bo'ldi. Uchrashuvda tomonlar hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan istiqbolli yo'nalishlarga alohida to'xtalib o'tishdi.

Jumladan, Erkinjon Turdimov hududlararo namunali yo'l xaritasi tuzib, ikki davlat rahbarlariga taqdim etish bo'yicha taklif bildirdi. O'zaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash, baliqchilik, ipakchilik, qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqarish, tekstil sohasi qayd etildi. Shuningdek, farmatsevtika, metallurgiya, raqamlashtirish sohaslarida ham istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjudligi ta'kidlandi. Szyansu ishbiarmonlariga Kattaqo'rg'on shahri va Kattaqo'rg'on tumanida barcha imkoniyatlar yaratilishi ma'lum qilindi.

O'z navbatida Szyansu provinsiyasi gubernatori Syuy Kunlin samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, tashrifdan maqsad ikki tomon ishbiarmon doiralarini uchun qulay biznes sharoitlarini

yaratgan holda hamkorlikni mustahkamlashdan iborat ekanligini qayd etdi. Uchrashuvga ipakchilik, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, savdo va sanoat sohaslarida butun dunyoda o'z o'rniga ega yirik kompaniyalar vakillari bilan tashrif buyurganligini ta'kidlab, ushbu yo'nalishlardagi istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuvda Samarqand viloyati va Szyansu provinsiyalari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish borasida memorandum imzolandi. Shuningdek, qurilish sohasi bo'yicha hamkorlikda kadrlar tayyorlash, qurilish korxonalarini kadrlarining malakasini oshirish, sohada olib borilayotgan ilmiy ishlarini birgalikda rivojlantirish maqsadida Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va Nankin fan-texnika kasb-hunar instituti hamkorligida tashkil etilayotgan qo'shma Chjenxe institutining rasmiy ochilish marosimi o'tkazildi.

Samarqand va Szyansu ishbiarmon doiralarining B2B, G2B muloqotlari bo'lib o'tdi. Uchrashuvlar davomida bir qator yo'nalishlarda o'zaro hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Syuy Kunlin boshchiligidagi delegatsiya tashrif davomida Samarqandning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilib, yurtimizning boy tarixi, madaniy merosi bilan yaqindan tanishdi.

A. ISROILOV.

Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir.

Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz.

Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030-yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan.

O'zbekiston delegatsiyasi Xitoyning Hangjou shahrida o'tkazilayotgan XIX yozgi Osiyo o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda. Yurtimiz sharafiga himoya qilayotgan sportchilarning 48 nafari samarqandlik.



DIYORA YANA TENGSIZ

E'tiborlisi, jamoaga ilk oltin medalni ham ular keltirdi. Xususan, pastdarg'omlik Diyora Keldiyorova dzyudo bo'yicha 52 kilogramm vaznda tengsiz ekanligini yana bir bor isbotladi.



Murosasiz kechgan finalda u BAA vakili Birsheft Xorlodoini mag'lubiyatga uchratib, birinchi o'rin va delegatsiyamiz uchun ilk oltin medalni qo'lga kiritdi.

Shuningdek, akademik eshkak eshish bo'yicha M4- dasturida ishtirok etgan samarqandlik Shehroz Hakimov, Davron Davronov, Dilshodjon Xudoyberdiyevlar ham oltin medalga sazovor bo'lishdi. Shu orqali akademik eshkak eshuvchilari-miz Osiyo o'yinlaridagi ishtirokini yakunlab, umumjamoa hisobida Xitoydan so'ng ikkinchi o'rinni egallashdi.

Ma'lumot uchun, joriy yilning 23-sentabridan 8-oktabriga qadar davom etadigan yozgi Osiyo o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi 423 nafar sportchi bilan 39 ta sport turida qatnashmoqda.



Nogironligi bor kishilar yasagan mahsulot yoki buyumlarda go'zallik va qulaylikdan tashqari mehr borligini ham sezassiz. Shu sababli bu mahsulotlarni havas bilan sotib olasiz.

Nogironligi bo'lgan va jismoniy imkoniyati cheklangan kishilar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning V respublika savdo yarmarkasiga kelganlar bu gal ham ana shunday taassurot bilan qaytdilar. Darvoqe, Samarqanddagi Islom Karimov ko'chasida uyushtirilgan bu tadbir nafaqat mahalliy aholi, balki xorijlik mehmonlarda ham qiziqish uyg'otdi.

Adliya vazirligi tomonidan Nogironlar jamiyati bilan hamkorlikda «Biz birgimiz!» ijtimoiy loyihasi asosida tashkil etilgan yarmarkada mamlakatimizning barcha hududlaridan 70 nafardan ortiq imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan shaxslar o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Yarmarkadan maqsad nogironligi bor vatandoshlarimiz tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotishda ko'maklashish, ularni kasb-hunar egalashga rag'batlantirishdan iborat, - deydi Adliya vazirligi mutaxassisi Avazbek Madaminov. - 2018-yildan buyon amalga oshirib kelinayotgan bu ijtimoiy loyiha joriy yil birinchi marta Samarqandda o'tkazildi. Avvalgi yarmarkalardan farqli ravishda bugun kashtachilik, qandolatchilik, duradgorlik va xalq hunarmandchiligining boshqa ko'plab turlaridagi mahsulotlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu loyihani rivojlantirgan holda kelgusida har bir viloyat markazida bittadan nogironligi bor shaxslar yaratgan mahsulotlar do'konini tashkil qilishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, ushbu mahsulotlarning onlayn savdosi yo'lga qo'yiladi. Bu ular tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni ko'proq sotish imkonini beradi.

Buxorolik Dilrabo Namozova

qo'li gul zardo'z. U yarmarkaga qo'l mehnati bilan yaratilgan 20 dan ortiq zardo'zlik mahsulotlarini olib kelgan.

- Shifokor edim, yigirma yil avval baxtsiz hodisa tufayli I guruh nogironi bo'lib qoldim, - deydi Dilrabo opa. - Bu ham Yaratganning sinovi. Nogironlik aravachasida o'tirib bo'lsa-da, zardo'zlik hunarini o'rgan-dim. Buxoro shahrida «Dilrabo chevarlari» o'quv kursini tashkil qildim. Chevarlik kursida imkoniyati cheklangan shaxslarga bepul, sog'lom kishilarga pullik xizmat asosida hunar o'rgataman. Bugun yarmarkaga



olib kelgan mahsulotlarim o'z xaridorini topganidan xursand bo'ldim. Bu kabi yarmarkalar bizga mashaqqatli mehnat samarasini ko'rsatadi, muhimi, hayotimizga ilqlik olib kiradi.

Ikki kun davom etgan yarmarkada hunarmandlar 388 million so'mdan ortiq qiymatdagi mahsulotlarini sotishga erishdi. Tadbir yakunida har bir ishtirokchiga tashkilotchilarning esdalik sovg'alari topshirildi.

“Zarafshon” va “Самаркандский вестник” – GAZETALARIGA 2024-YIL UCHUN OBUNA BO'LING!

BIZ:

- Samarqand hayotiga oid muhim xabar va yangiliklarni gazetalarimiz va internetdagi sahifalarimiz orqali birinchilardan bo'lib yoritamiz;
- ma'lumotlarni birinchi manbadan olib, sizga yetkazamiz;
- eng muhim, foydali ma'lumotlarni sizga ilinamiz.

OBUNANI TAHRIRIYATNING O'ZIDAN HAM RASMIYLASHTIRISHINGIZ MUMKIN!

Obuna bahosi O'TGAN YILGI NARXDA!

**“ZARAFSHON” gazetasi
(haftada uch marta) obunasi:**

- 640 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 768 ming so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).

**“САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК” gazetasi
(haftada ikki marta) obunasi:**

- 468 ming so'm (yakka tartibda tahririyatdan olib ketish, Samarqand shahridagi boshqarmalar, muassasalar, yirik korxona va tashkilotlarga yetkazib berish sharti bilan);
- 561 ming 600 so'm (matbuot tarqatuvchilar orqali yetkazib berish sharti bilan).





Dunyoga mashhur har qanday brend ortida hunar yoki bilim, chinakam tadbirkorlik zamirida shijoat, tinimsiz mehnat va tajriba yotadi. “Urgut sanoat servis” korxonasi rahbari Majidxon Islomov yosh bo‘lishiga qaramay, mehnatda toblangan, o‘z ishiga hunar va ilm bilan yondashadigan shijoatli tadbirkorlardan.

SHUNCHAKI HAVAS

BILAN MAQSADGA YETIB BO‘LMAYDI

- Har qanday ishning asosida bilim va hunar bo‘lmas ekan, uning erta-sidan umid yo‘q, - deydi Majidxon Islomov tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda. - Boshqa sohalar kabi tadbirkorlikning ham o‘z ilmi bor. Ko‘pchilik tadbirkorlikni pulning ortidan quvish deb biladi, unga faqatgina savdo-sotiq ishi deb qaraydi. Chinakam ishbilarmen bo‘lish uchun sohaga oid kitoblarni o‘qish, yangiliklar bilan tanishib borish, zamonaviy bilimlarni egallash lozim. Muhimi, maqsadni to‘g‘ri qo‘yish, marrani balandroq olish. Ayrimlar maishiy ehtiyojlarini qoniqtiradigan mablag‘ topganidan so‘ng to‘xtab qoladi, o‘z ustida ishlamaydi.

M.Islomov tuman markazidan ijara joy olib, tikuv sexi tashkil qilib, ukalari bilan erkaklar kiyimlarini tikish bilan shug‘ullana boshlagan kezlari oddiy hunarmand edi. Tayyorlangan mahsulotni tumandagi bozorda sotib, ko‘proq xomashyo olar, sifatliroq mahsulot ishlab chiqarishga intilardi. Buning ortidan ular tayyorlayotgan mahsulotning mijozlari ko‘paydi, viloyat miqyosida xaridorlar, buyurtmachilar kela boshladi. Ishning rivojidan ruhlangan hunarmand qo‘shimcha ishchi jalb qildi. 7-8 nafar tikuvchini ishga olib, mahsulot turini ko‘paytirdi, ko‘proq buyurtma qabul qildi.

- Yaqin besh yilda tadbirkorlik qilaman degan kishiga, ayniqsa, yoshlarga hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan oddiygina hunarmanddan taniqli tadbirkor bo‘lib yetishishimda bosh omil bo‘ldi, - deydi “Tashabbus – 2021” ko‘rik-tanlovi respublika bosqichining eng yosh tadbirkor nomnatsiyasi g‘olibi. - Xususan, oilaviy korxona ochish uchun katta imtiyozlar berildi. Tikuv-trikotaj sohasi yurtimizda kelajak sohalardan biri. Arzon va sifatli xomashyo manbai, undan tayyorlanayotgan mahsulotga bo‘lgan katta ehtiyoj mamlakatimizda bu jabhada biznes uchun katta imkoniyatlar eshigini ochdi.

Uchrashuvda ishbilarmenlikka havasmand yoshlar tadbirkordan mashhur kiyim-kechak brendlari haqida so‘radi. Bizda ham shunday brendlar yaratish mumkinmi, degan savolni o‘rtaga tashladi.

- Olim, sportchi yoki san‘atkor yurtini dunyoga tanitgani kabi tadbirkor ham o‘z mamlakati mashhur bo‘lishida hissa qo‘sha oladi, - dedi erkaklar kiyimlarini tayyorlashda yuqori natijalarga erishayotgan tadbirkor. - Bolaligimdan turli rivojlangan mamlakatlarning mashhur milliy brendlariga havas qilar edim. Masalan, Turkiya, Italiya kabi mamlakatlarni o‘z brendlari ortidan butun dunyoda kattayu kichik taniydi. Tayyorlayotgan kiyimlarimizning sifati oshib borgani sari men ham o‘z milliy brendimizni yaratishni maqsad qildim. Buning uchun Turkiya, Xitoy kabi davlatlarga borib, ularning tajribalarini o‘rgandim. Bizda yaqin-yaqingacha tikuv-trikotaj sohasida kuchli mutaxassislar yetishmas edi. Shu sababdan moliyaviy xarajatlari qanchalik og‘irlik qilmasin, Turkiyadan ma‘lum vaqtga mutaxassis jalb qilishga majbur bo‘ldik.

Bu sa‘y-harakatlar o‘z samarasini berib, ko‘p o‘tmay M.Islomov yurtimiz bozorlariga milliy o‘zbek brendi “Urgutiniy” nomi bilan erkaklar kiyimlarini chiqara boshladi. Korxona faoliyati e‘tiborga tushib, 2021-yilda davlatimiz rahbari Urgut tumanida tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan tanishganida yosh tadbirkorning faoliyati bilan ham qiziqdi.

- Yurtboshimizning e‘tibori keyingi yutuqlarimda zamin bo‘ldi, - deydi “Shuhrat” medali sohibi M.Islomov. - Bu uchrashuv menga katta ishonch bag‘ishladi. Ishbilarmen kishi nafaqat o‘zi, balki atrofidagi insonlarga ham nafi tegsa, chinakam tadbirkorga aylanadi. Faoliyatimizni kengaytirib, Oqdaryo tumani va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumanida korxona filiallarini ochdik. Hozirda korxonamizda 200 dan ortiq kishi ish bilan band. Kuniga 2 mingta mahsulot tayyorlanayapti. Mahsulotlarimiz Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi davlatlarda xaridorgir. Bugun yoshlarning turli yo‘nalishlarda tadbirkorlik qilishi uchun barcha imoniyatlar yaratilgan. Xususan, urug‘lik yoshlarda bu imkoniyat yanada kengroq. Ammo shunchaki havas bilan maqsadga yetib bo‘lmaydi. Buning uchun ko‘proq o‘qish, izlanish lozim.



Sulaymon MARDIYEV.

Viloyat Matbuot uyi-da Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda viloyatda kadastr xizmatiga xususiy sektorni keng jalb etish orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi.

Soha mutasaddilari “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonun va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vaqtida yuzaga keladigan nizolarni sudga qadar hal qilish tartiblarining mazmun-mohiyatini tushuntirib berishdi.

- Vazirlar Mahkamasining

KADASTR XIZMATI XUSUSIY SEKTORGGA O‘TKAZILADI



“Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni keng jalb etish doirasida kadastr sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizomiga ko‘ra, xususiy kadastr xizmati bilan shug‘ullanish 2023-yil 1-oktabrdan boshlab Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Namangan, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari-

da, 2024-yil 1-iyuldan boshlab respublikaning barcha hududlarida joriy etiladi, - deydi Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Alisher Xolmonov. - Buning uchun mazkur sohada ko‘p yillar ishlagan mutaxassislar, jumladan, geodeziya, kartografiya va kadastr, bino va inshootlar qurilishi, qurilish ekspertizasi, ko‘chmas mulk ekspertizasi, arxitektu-

Mahallaning o‘z budjeti bo‘ladi

2023-yil 11-sentabr kuni Prezidentimiz “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Unga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha shahar va tumanlarda bosqichma-bosqich “Mahalla budjeti” tizimi joriy etiladi.

Bunda tuman va shahar budjetlariga tushadigan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muamolarini hal qilish jamg‘armalariga yo‘naltiriladi.

“Tashabbusli budjet” va mahallalarning moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish maqsadida 2024-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat budjetidan 10 trillion so‘m, shundan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun kamida 4 trillion so‘m ajratiladi. Mablag‘larning aynan mahallalarni yanada obod qilish uchun sarflanishi avvalambor, odamlarning turmushiga

farovonlik olib kiradi. Muhimi, qishloqlar va mahallalar infrazuzilmasi yaxshilanadi.

Qarorda yana bir muhim masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Sir emas, bugun ekologiya masalasi nafaqat bizning mamlakatimiz yoki mintaqamizda, balki butun dunyoda jiddiy tus olayotgan muammolardan. Qarorda belgilanishicha, atmosfera-ga zararli tashlanmalar hajmini kamaytirish maqsadida xalqaro “karbon market” tizimi doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar tomonidan barpo etiladigan yashil maydonlarni tashkil qilish xarajatlarini qisman jalb qilingan grant mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Bunday imkoniyat birinchi galda atmosfera-ga tashlanayotgan zararli tashlanmalarning kamayishiga xizmat qilishi barobarida insonlarning sog‘ligi uchun muhim bo‘lgan yashil maydonlarning ko‘payishiga turtki beradi. Ayniqsa, bu sanoatlashgan viloyatimiz uchun o‘ta muhimdir.

Nodir QUDRATOV,
“Yuksalish” umummilliy harakati viloyat hududiy bo‘linmasi bosh mutaxassisi.

Xalqaro konferensiya

600 gramli CHAQALOQ YASHAYPTI

Ammo bu bilan cheklanmaslik kerak

Tibbiyot allaqachon zamonaviylikka, tashxislashdan, davolash muolajalariga qadar yangi davrga qadam tashladi. Bir paytlar ba‘zi jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng oylab davom etgan muolajalar bugun kunlarga qisqardi. Tibbiyotning barcha yo‘nalishlarida tashxislash ko‘lami kengaydi.

Xususan, akusherlik va ginekologiya sohasida ko‘plab yangiliklar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Deylik, bundan 5-6 yil avval 600-700 gram vaznda tug‘ilgan bolaning yashab qolishini tasavvur qilish qiyin edi. Bugun hatto chekka tumanlarda ham shunday tug‘ilgan chaqaloqlarning yashab ketishi uchun imkoniyat mavjud. Yoki farzandsizlikdan aziyat chekkan oilalar EKO amaliyotini faqat chet elda amalga oshirardi. Bugun bu jarayon sarf-xarajati bir necha baravar arzonlashib, o‘zimizda bajarilmoqda.

Samarqandda tashkil etilgan “O‘zbekistonning reproduktiv salomatligi: erishilgan yutuqlar va kelajakdagi rejalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman yuqoridagi kabi yangiliklar bilan qadam-baqadam harakat qilish uchun yana bir maydoncha vazifasini o‘tadi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi va Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan tashkil etilgan konferensiyada yurtimiz mutaxassislari bilan birga, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Shveysariya, Rossiya, Isroil, Xitoy, Janubiy Koreya, Ukraina, Belarus, Qozog‘iston va Tojikistondan 350 nafar olim va ekspert ishtirok etdi.

- Yurtimizda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar sog‘ligini

muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining samarali boshqaruv tizimini yaratish maqsadida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning joylarda 14 ta hududiy filiallari tashkil etilmoqda, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, tibbiyot fanlari doktori Natalya Nodirxonova. - Bu tizimdagi barcha ishlar, xususan, homilador ayollarning salomatligini mustahkamlash, ularning sog‘lom farzand dunyoga keltirishlari bilan bog‘liq barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan reproduktiv hamda skri-ni-ng markazlari birlashtirilib, akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari filiallariga aylantiriladi. Shuningdek, qarorga ko‘ra, onalar salomatligini himoya qilishning takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj tizimi joriy etiladi.

Konferensiya ishida xalqaro ekspertlarning “Somatik kasalliklar va homiladorlikning zamonaviy qiyofasi”, “Klinik akusherlikning dolzarb muammolarini ilmiy dalillar nuqtai nazaridan baholash”, “Anesteziologik qo‘llanma va kritik vaziyatlar” kabi mavzulardagi ma‘ruzalari tinglandi, mutasaxassislar o‘zaro tajriba almashdi.

Gulruh MO‘MINOVA.



ra, yer tuzish va yer kadas-tri yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega muhandislar faoliyatini boshlashi uchun malaka imtihonidan o‘tib, malaka sertifikatiga ega bo‘lishlari kerak. Yoki ish stajiga ega bo‘lmagan mutaxassislar kasbiy qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha ta‘lim olishi lozim.

Anjumanda mutaxassislar jurnalistlarning jismoniy va yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga oid shikoyatlarini ko‘rib chiqish, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish vaqtida yuzaga keladigan nizolarni sudga qadar hal qilish tartibi hamda shikoyatlarni ko‘rib chiqishda murojaat etuvchilarning teng huquqliligi, xolislik, qonuniylik, kollegiallik va huquqni qo‘llash amaliyotiga oid savollariga javob berishdi.

Dilmurod TO‘XTAYEV.

O‘qituvchi va murabbiylar kuni oldidan

Kattaqo‘rg‘on tumani Kichik-ming qishlog‘ida tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan maktabni o‘tgan o‘quv yilida 16 nafar o‘quvchi tamomladi. Ularning 13 nafari mamlakatimizdagi eng nufuzli oliy ta‘lim muassasalariga talabalikka qabul qilindi. Bunda shu maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Volida Ozodullayevaning ham munosib hissasi bor.

Yosh o‘qituvchining KATTA YUTUQLARI



- Ota-onam o‘qituvchi bo‘lganligi sababli bolaligimdagi orzuim shu kasbni egallash edi, - deydi Volida-xon. - Keyingi yillarda mamlakatimizda yosh avlodga chet tillarni o‘rgatishga alohida e‘tibor qaratilyapti, ammo ona tilini bilmasdan turib, boshqa tilni o‘rganish, turli sohalarda ishlash osonmas. Shuning uchun maktabni bitirib, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi bo‘lishga qaror qilgandim. 2012-yil maktabni tamomlab, taqdir taqozosi bilan o‘zim qiziqmagan yo‘nalishda, ya‘ni mahallamizdagi iqtisodiyot va tadbirkorlik kolle-jida o‘qidim. Lekin ona tili va adabiyotga qiziqishim so‘nmadi. Kollejni bitirib, Navoiy davlat pedagogika institutining ona tili va adabiyot fakultetiga grant asosida o‘qishga qabul qilindim.

V.Ozodullayeva oliy o‘quv yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, o‘zi o‘qigan 25-maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars bera boshladi.

- O‘tgan yili tumanimizda ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi, - deydi u. - Bu maktab aynan bizning mahallamizda ochilgani men uchun quvonarli bo‘ldi. O‘qituvchilar tanlov asosida qabul qilindi. Men ham test jarayonlarida qatnashib, 100 ballik natijaga erishdim. Ushbu maktabga ishga kirgach, o‘z ustimda ko‘proq ishlashga harakat qildim. Ona tili va adabiyot fani bo‘yicha milliy sertifikatni qo‘lga kiritdim. Hatto o‘quvchilarimiz ham shunday milliy sertifikatni qo‘lga kiritib boshladi.

Kattaqo‘rg‘on ixtisoslashtirilgan maktabini tamomlab, talaba bo‘lgan 13 nafar bitiruvchining 2 nafari-ga darsdan tashqari qo‘shimcha to‘garaklarda Volida Ozodullayeva ta‘lim bergan.

To‘lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

BU
FAKTI!

Prezidentimizning 2023-yil 24-avgust kuni viloyatimizga tashrifi davomida bergan topshirig‘iga ko‘ra, sentabr, oktabr, noyabr va dekabr oylarida viloyat fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarining 42 ming gektar maydonida to‘qsonbosti ekinlarini (piyoz, sarimsocqpiyoz, ismaloq va boshqa turdagi ko‘katlar) ekish belgilangan.

Ehtimol, rahbarlar o'rtasidagi bunday musobaqalar ilk marta o'tkazilayotgani uchunmi, shahar, tumanlar hokimlari va sektor rahbarlari ishtirokidagi mini-futbol musobaqasi ijtimoiy tarmoqlarda ham iliq kutib olindi. Qolaversa, mazkur musobaqaning ayni paxta mavsumiga to'g'ri kelgani, ko'p yillar davomida mas'ul tashkilotlar rahbarlari bu vaqtda dalada bo'lgani ham nazardan chetda qolmadi.

Xo'sh, tarmoqlarda ba'zan samimiy, goh yumor bilan kutib olingan bu musobaqa qanday tashkil etildi?

Musobaqa viloyat hokimi tomonidan shu yil avgust oyida tasdiqlangan nizomga asosan uyushtirilgan bo'lib, viloyatda davlat idoralari rahbar xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini va sportni keng targ'ib qilish, ularning hamkorligini yanada mustahkamlash, ish jarayonida bir-birlarini yaqindan tushunishlarini ta'minlash, sport o'yinlari orqali barchani sog'lom turmush tarziga targ'ib qilish kabi maqsadlar ko'zlangan.

Viloyat hamda shahar, tumanlar 5 ta sektor rahbarlari va ularning o'rinbosarlaridan iborat jamoalar o'rtasida mini-futbol bo'yicha "Viloyat hokimi kubogi" bellashuvlari shu yilning 21-sentabr kuni boshlandi.

Ushbu musobaqani yuqori saviyada tashkil etish

Birinchi raqamlilar maydonda

Hokim va sektor rahbarlari o'rtasidagi futbol musobaqasiga jamoatchilik e'tibor qaratmoqda



va o'tkazish uchun ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, 4 ta hududda (Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hamda Ishtixon va Toyloq tumanlaridagi stadionlarda) o'tkazilgan guruh bosqichida 17 jamoa ishtirok etdi.

Qur'a natijalariga ko'ra, "A" guruhidan Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Oqdaryo, Samarqand va Bulung'ur tumanlari; "V" guruhidan Kattaqo'rg'on shahri, Paxtachi, Kattaqo'rg'on va Past Darg'om tumanlari;

"S" guruhidan Toyloq, Jomboy, Qo'shrabot va Narpay tumanlari;

"D" guruhidan Ishtixon, Nurobod, Payariq va Urgut tumanlari jamoalari o'rin olgan.

Musobaqa jadvaliga asosan o'yinlar qizg'in davom etmoqda. Yarim final va final o'yinlaridan lavhalar tayyorlash ko'zda tutilgan.

Final uchrashuvlari 6-oktabr kuni Past Darg'om tumanidagi futbol maktabi o'yingohida o'tkaziladi va g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

18 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan xodimlar

o'zini sportda sinab ko'rdi

Samarqand shahridagi o'yin turlari va yengil atletika ixtisoslashtirilgan sport maktabida viloyat hokimligi, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi sinovdan o'tkazildi.

- Yoshim 65 da, - deydi tadbir ishtirokchisi Karim Eshniyozov. - Inson 40 yoshdan oshgandan keyin sport bilan shug'ullanib turmasa, turli xil kasalliklar bezovta qilaverar ekan. Shuni anglagan holda 20 yildan beri har kuni badan tarbiya bilan shug'ullanaman. Shuning uchun ham sog'lom va tetikman. Pensiya yoshida bo'lsam ham bugungi kunda viloyat gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi yo'riqchi-uslubchisi sifatida faoliyat ko'rsatib kelyapman. Sport tadbirlarida yoshlardan qolishmaslikka harakat qilaman.

18 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan erkaklar hamda ayollar ishtirokida o'tkazilgan tadbirda hokimliklar, ta'lim muassasalari va tashkilotlardan 2 ming nafardan ortiq xodimlar 5 ta yosh toifasida sportning 11 turi bo'yicha o'zining jismoniy imkoniyatlarini sinovdan o'tkazdi.

Jasurbek SHUKUROV.



O'TROR

Sohibqiron Amir Temurning so'nggi manzili

Samarqand shahridagi O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida "O'tror-Samarqand: madaniyatlarining umumiy jihatlari" nomli ko'rgazma ochildi. Qozog'istonning "O'tror" davlat arxeologiya muzey-qo'riqxonasi hamda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmaning ochildishida har ikki mamlakatdan muzeysunoslar, olimlar hamda tarix xilomandlari jam bo'ldi.

O'tror Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlaridan birida joylashgan, yaqinida Sirdaryo va Aris daryolari oqib o'tadigan, jahon tamaddunida o'z o'rniga ega qutlug' maskanlardan biri bo'lgan. Butun turkiy xalqlarining faxri, islom falsafasining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiy yashagan O'tror qadimdan Hindiston, Xitoy, Vizantiya va boshqa davlatlar bilan doimiy ravishda ilmiy, madaniy, iqtisodiy, diplomatik aloqalarda ishtirok etgan, bu yerda ilm-fan va madaniyat bilan bir qatorda savdo-sotiq, ishlab chiqarish, dehqonchilik, chorvachilik rivojlangan.

- O'tror O'rta Osiyoning Xiva, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz, Toshkent kabi qadim shaharlari bilan uzviy madaniy aloqalarga ega bo'lgan, - deydi "O'tror" davlat arxeologiya muzey-qo'riqxonasi rah-

bari Jangeldi Maxashov. - Bu qadimiy shahar Qoraxoniylar turk xoqonligi, so'ngra xorazmshohlar davlati tarkibida bo'lib, qazishmalarda qadimiy shahar atrofidan mazkur davrlarga oid ko'plab artefaktlar topib o'rganilgan. Amir Temur Xitoyga yurishni maqsad qilib yo'lga chiqqanida mazkur shaharda to'xtagan. Buyuk sarkarda hayotligidagi so'nggi manzili O'tror shahri bo'lgan. Ushbu ko'rgazmadan ko'zlangan maqsad O'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'lidagi Samarqand va O'tror shaharlari ning tarixiy-madaniy aloqalari va madaniyatlar umumiyliklari targ'ib qilishdan iborat.

Tarixiy-ma'rifiy ko'rgazmada O'trorda Buyuk Ipak yo'li orqali savdo aloqalari rivojlanganligi va Qoraxoniylar turk xoqonligi davridan Qozoq xonligigacha bo'lgan shahar madaniyati, shuningdek, yozma madaniyat rivojidan dalolat beruvchi arxeologik ashyolar namoyish etilmoqda.

Ko'rgazmaning ochildish marosimida viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov va Qozog'iston Respublikasining Samarqand viloyatidagi konsulligi rahbari Bourjon Do'st-mambetov ishtirok etdi.

Ko'rgazma 22-oktabrgacha davom etadi.

S.MARDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

URGUT TUMANIDAGI "URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJ TA'SISCHILARI DIQQATIGA!

Urgut tumanidagi "URGUT SAVDO KOMPLEKSI" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2023-yil 5-oktabr kuni soat 11:00 da jamiyat ma'muriyati binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

- "URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJning 2023-yil to'qqiz oyi yakunlari bo'yicha hisoboti;

- Korparativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, davlat ishtirokidagi korxonalarning ta'sis va ichki me'yoriy hujjatlarini qayd etilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish, jumladan, ularga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish masalasi;

- jamiyatning "Ijroiya organlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to'g'risida"gi nizomini hamda "URGUT SAVDO KOMPLEKSI" MCHJning yangi tahrirdagi nizomini tasdiqlash;

- boshqa masalalar.

Yig'ilishga qatnashish uchun o'zingiz yoki o'z ishonchli vakil-ingizni ishonchnoma orqali yuborishingiz so'raladi.

**"URGUT SAVDO KOMPLEKSI"
MCHJ MA'MURIYATI.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Makkamov Abdakimga (2022-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Nomozov Xushmuratga (2021-yil 7-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Nomazov Abdigafarga (2017-yil 9-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Inoya-

tov Adiz Xikmatovichga (2022-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ruzimurodov Murtazaga (2010-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Bektemirov Baxadirga (2023-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Rajabova Mubariza Boltayevnaga (2011-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob

Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Frolova Svetlana Fominchinaga (2021-yil 19-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Po'latov Norquziga (1999-yil 20-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqarmasidan 2007-yil 18-aprelda Bazarov Zarif Iskandarovichga berilgan 4850 raqamli pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-926-48-40.

 Hamkasb xotirasi

Tohir NORQULOV

Erta bahor. Futbol mavsumining ochildish o'yini edi. O'yin boshlanishiga taxminan yarim soat vaqt bor. Stadion muxlislar bilan deyarli to'lgan. Deyarli... Bu so'zga urg'u berayotganimizning sababini stadionga borib, ana shunday muhitni ko'rganlar ko'proq his qiladi: hamma bayram kayfiyatida, g'ala-g'ovur, ayniqsa, futbol fanatlari o'tiradigan markaziy sektor "yonardi".

Nihoyat yamyashil maydonga futbolchilar chiqib, mashg'ulotga kirishdi. Baqirchaqirdan quloq bitay deydi. Ashaddiy muxlislar hatto mashg'ulot jarayonini ham yaxshigina olqishlab turibdi. Qo'qqisdan stadionni qarsak tutib ketdi. Nima bo'ldi, nima bo'ldi, deya barcha yashil maydonga qaradi. Bu manzarani ko'rganlarning yuziga tabassum yugurib, qarsakni yanada avj oldirardi.

Bu voqea qisqa, ammo juda yoqimli edi: boshiga do'ppi kiygan, egnida kostyum-shim, bo'yniga fo-toapparat osib olgan kasbdoshimiz, ustozimiz Tohir Norqulov yashil maydonning bir chetiga yotib olib, hatto dumalab mashg'ulot o'tkazayotgan futbolchilarni suratga olardi. Muxlislarning olqishi u kishiga edi...

Ana shunday mohir va tajribali fotosuratchi, ustoz jurnalist Tohir Norqulov 77 yoshida olamdan o'tdi.

1946-yilda Narpay tumanida tug'ilgan Tohir aka aslida oziq-ovqat texnikumini tamomlagan. Hayotda ko'rganlari, guvohi bo'lgan voqealarni fotoapparat tasmlariga muhrlashga bolaligidan qiziqqan yosh mutaxassis ushbu sohada ko'pam ishlamadi. Mazkur qiziqish uni tuman gazetasi sari yetakladi. Keyinchalik, 1972-yil yosh fotomuxbirning iqtidori "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasi tahririyati jamoasi e'tiborini tortdi. Viloyatning bosh gazetasiga ishg kelgach, ustoz G'ulom Aliyevdan fotomuxbirlikning, gazetaga suratli lavhalar tayyorlashning nozik sirlarini o'rgandi.


So'ng "Jizzax haqiqati" gazetasi, viloyat teleradio-kompaniyasida faoliyat ko'rsatdi. Yigirma yil davomida O'zbekiston Milliy axborot agentligining Zarafshon vohasi bo'yicha muxbiri sifatida xizmat qildi. Uning zahmatli mehnati o'zi ishlagan jamoalar, ijodiy uyushmalar, viloyat hokimligi tomonidan e'tirof etildi. 2005-yilda "Eng ulug', eng aziz" respublika tanlovida g'olib bo'ldi. Mehnat faoliyati davomida olgan suratlari asosida bir necha bor fotoko'rgazmalar tashkil etdi. Muhimi, Tohir aka surat olishni san'at darajasiga olib chiqa oldi.

Poytaxtdagi qator tahririyatlar bilan hamkorlik qilib, o'nlab gazetalarda u kishi fotolavha tayyorlab yoritmagan soha, tashkilot qolmadi hisob. Shu davrgacha u kishining fotoapparatiga muhrlangan suratlar muzeylarni obod qiladigan darajaga yetdi.

T.Norqulov sevgan kasbini yarim asrdan ziyod ardoqlab, matbuot nashrlariga suratli maqolalar tayyorlashda davom etdi. Hatto umrining so'nggi kunlarigacha uning qo'lidan fotoapparat tushmadi. Kasb sirlarini yosh fotomuxbirlarga o'rgatdi.

Ustoz jurnalist, qadrdon hamkasbimizning xotirasi qalbimizda mangu yashaydi.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi.



MADANIYAT — XALQ VA JAMIYATNING QIYOFASI

UNING RIVOJIDA “SAMARQAND TAJRIBASI” QANDAY BOʻLISHI KERAK?

Avval koʻpam eʼtibor qilmasdim, keyingi vaqtlarda kuzatib boryapman. Toʻy bazmlari boshda milliy musiqalarimiz, zalvorli qoʻshiqlar bilan boshlanadi. Biroz "qizishib" olgandan keyin esa u qanday koʻrinish olishi barchaga ayon.

Birgina shu misolning oʻzidan odamlarimiz tiynatida madaniyat hamon ufurib turganligini, ularda haqiqiy sanʼatga xayrixohlik borligini ilgʻash mumkin. Aksincha boʻlganida, toʻy kechalarida durdona asarlar yangramagan, yigʻilganlar uni joʻr boʻlib kuylamagan boʻlardi...Shu kunlarda xayolimni band qilgan bu oʻyga jamoatchilik orasida tarqalgan bir gap hamohang boʻlib, qoʻlimga qalam olishga undadi: madaniyat va sanʼat sohasini rivojlantirishda "Samarqand tajribasi" boʻlarkan...

Insoniyat tarixida har qanday millat asrlar davomida shakllangan va davr sinovlaridan oʻtgan milliy-maʼnaviy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy xotirasi bilan yashasagina mangulikka daxldor boʻlishiga dalillar koʻp. Xusu-san, yurtimiz oʻtmishi ham bunga yorqin misol boʻladi. Shubha yoʻqki, xalqimizning buyuk davlatchilik tarixi, urf-odat va anʼanalari, dunyo tamadduni rivojida munosib hissasi, jahon hamjamiyati eʼtirof etadigan milliy xususiyatlari va madaniyati bor. Yangi Oʻzbekiston oldida turgan vazifalar ichida bu ulugʻ maqomni yuksak pogʻonaga koʻtarish, xalqimizning intellektual darajasini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Zotan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va sanʼat sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday taʼkidlagan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va sanʼat taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu maʼnoda, madaniyat - bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasi. Biz Oʻzbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim".

Anglaganingizdek, milliy madaniyatimizni rivojlantirish davlat siyosatida doim kun tartibida boʻlib kelmoqda. Endi bu borada Samarqand konsepsiyasini yaratish, uni amalga oshirish vazifasi qoʻyilmoqda. Demak, endi jamoatchilik, xususan, ziyolilar uyushib, jon koyitib, madaniyatning barcha yoʻnalishlari — moddiy va nomoddiy madaniyat meros, muzeylar, teatr va kino, milliy musiqa, estrada, tasviriy va amaliy sanʼatlar, madaniyat va istirohat bogʻlari hamda madaniyat markazlari sohalarida oʻzgarishlar qilish, natijaga erishish kerak.

Bu borada dastlab ayrim faollarning fikrlari bilan boʻlishsak.



- Bir paytlar musiqa bilim yurtida oʻqish jarayoni 4 yil edi, - deydi **Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist Erkin Qaytarov**. - Taʼlim dasturida musiqiy fanlar ustuvor edi. Shuning uchun toʻlaqonli mutaxassislar yetishib chiqardi. Konservatoriyada 5 yil oʻqitildirdi.

Oʻsha dasturni imkon qadar qaytarish kerak. Yaxshi mutaxassis tayyorlash vaqtni talab qiladi. Sanʼatkor tayyorlashni gʻishtiruvchi tayyorlash bilan tenglashtirish kerak emas.

Hatto institutlar musiqa fakultetlaridagi talabalarga trigonometriya, biologiya, jismoniy tarbiya, tarix, psixologiya va yana bir necha fanlar mutaxassislik fanlaridan ustun qoʻyilgan. Imtihon davrida umumtaʼlim fani domlari talabalarni mutaxassislik fanlaridan boʻladigan imtihonlarga yubormay qoʻygan holatlar kuzatilmoqda. Oʻylanib qolasan, oʻqishni tamomlagan yigit-qizlar bu fanlardan dars bermaydiki-tu!

Aytmoqchi boʻlganim, eng avvalo, oliy oʻquv yurtlarining sanʼatga oid fakultetlarida mutaxassis tayyolashning bugungi ahvoli chuqur tahlil qilinib, toʻgʻri yechim topilishi shart.

Samarqand azaldan ilm-fan bilan birga musiqa, cholgʻu va xonandalik rivojlangan ulugʻ maskan. Oʻsha davrdagi holatni tiklash, musiqa va sanʼatni qayta targʻib qilib, yetuk mutaxassislar chiqishi uchun maqom instituti yoki Madaniyat institutining Samarqand filialini ochish kerak.

1923-1929-yillar faoliyat koʻrsatgan musiqa va xo-reografiya oliygohi haqidagi hujjatlar ham viloyat arxivida saqlanib qolmagan. Shu tufayli maqom sanʼatining dunyo yuzini koʻrishiga xizmat qilgan Samarqand sanʼati tarixi mavhum boʻlib qolgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, buxorolik koʻpgina yetuk xonanda va sozandalar, Doni Zokirov, Tolibjon Sodiqov, Sayfi Jalil, Nabijon Hasanov, xorazmlik ustoz sanʼatkorlardan koʻpchiligi oʻsha davrda shu oʻquv dargohida taʼlim olib, keyinchalik shu dargohda ishlab, milliy sanʼat nufuzini koʻtarishga hissa qoʻshishgan.

Mavjud taʼlim maskanlarida tajribali ustozlar ishtirokida mahorat darslarini koʻpaytirish ahamiyatli. Ustoz-shogird anʼanalarni puxtaroq oʻylab, davom ettirish lozim.

Viloyat televideniyaasida mumtoz sanʼatning xalqimiz orasida nufuzini oshirish uchun yetuk, ha, aynan yetuk ustozlar ishtirokida jonli koʻrsatuvlar, mumtaz dasturlar tashkil etish kerak. Bu jarayonda toʻy sanʼatkorlaridan voz kechish muhim va zarur. "Yaxshi aytadi, baqirib aytadi, falonchini ashulasini zoʻr aytadi", deb ularni efigra chiqarmaslik, boʻlar-boʻlmas sanʼat korchorlonlaridan voz kechish kerak. Buning uchun haqiqiy bilimdon mutaxassislarga, iqtidorlarga tayanish kerak.

Umuman, shoirlar va sanʼatkorlar hamkorligidagi koʻrsatuvlarni tayyorlab, efigra berish faqatgina madaniyat rivojiga xizmat qiladi. Qani endi televi-deniyada shoir, bastakor, xonanda va sanʼatkorlar ishtirokida doimiy koʻrsatuvlar qilinsa.

Bundan tashqari, kollej va oliy oʻquv yurtlari talabalarini faqat sinfga qamab oʻtirmasdan, maktablar, oliyogʻhlar, mahallalardagi omma orasida oʻquv konsertlarini tashkil etib, maqom, mumtoz sanʼatni xalq ichida keng targʻib qilish mumkin. Oʻz navbatida

amaliy konsertlar talabalarning haqiqiy mutaxassis boʻlib yetishishlari uchun turtki boʻlib xizmat qiladi.

- Madaniyat muassasalari har chorakda kamida ikkita mahallada hisobot berishi kerak, menimcha, - deydi **Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan jurnalist Farmon Toshev**. - Bunda oʻrganilgan yangi kuy, yaratilgan yangi qoʻshiq, raqs, monolog ijro etiladi. Ayrimlarini yigʻilganlar bilan birga ijro etish kerak. Namunali oila, fidoyi odamlarga bagʻishlovlar tashkil qilish ham mumkin.

Buni madaniyat muassasasi xodimlari mahalla beshligi bilan tashkil qilsa boʻladi. Uchrashuv, mu-loqot tarzidagi bu tadbirlar havaskorlarni ham ijroga oʻrgatadi. Bu oʻz navbatida ixcham tanlovlar, viktorina uyushtirishga ham yoʻl ochadi.

Takliflarni aytaypmiz-ku, ammo u amalga osharmikan, degan hadik bor. Chunki ijroga qolganda odam topilmaydi. Shu bois menimcha, korxona va tashkilotlarda "Hurmat taxtasi" yoki "Bizning fidoyilar" pannosi-ni tashkil qilish kerak. Toki, yaxshi ishlayotgan, faollik bilan mehnat qilayotganlarni nafaqat jamoa, bu yerga kelganlar ham bilsin. Bundan oʻsha xodim ragʻbat oladi. Hech boʻlmaganda, jamoada professionalar tanlovini oʻtkazish mumkin. Chunki kasbiy madaniyat maʼruza bilan singdirilmaydi.

Darvoqe, yirik korxona, tashkilotlarda xorijdagi kabi soha tarixi muzeylari yoki burchaklarini yaratish kerak. Yangi ishga kirgan xodim yoki sohaga qiziqqan kishi bu yerda tizim tarixi va buguni haqida aniq tasavvur va tushunchaga ega boʻladi.

Umuman, madaniyat rivojida "Samarqand tajribasi" haqida gap ketganda, uni teatsriz tasavvur qilib boʻlmaydi. Shu bois mavjud teatrlarda kamida ikkita ijodiy guruh tuzish kerak. Bunda oʻzaro sogʻlom raqobat muhiti paydo boʻladi.

Bugungi voqeikdan kelib chiqib, ijtimoiy tarmoqda "Bir aktyor teatri" janrini rivojlantirish kerak, deb oʻylayman. Bu orqali aholidan, ziyolilardan taklif, buyurtma olish mexanizmini ham yaratish mumkin. Natijada jamoatchilik istaydigan sahna asarlari yaratiladi.

Musiqa maktablari boʻyicha ham shunga oʻxshash yangilik qilish zarurati bor. Ular nega haftaning besh kunida ixtisoslashtirilgan tomoshalar uyushtirishmaydi? Masalan, dushanba maqom kechasi, seshanba raqs kechasi, chorshanba milliy qoʻshiqlar va hokazo. Bu tadbirlarga ota-onalar, mahalla faollarini taklif etish kerak. Tinglovchi oʻrga-nadi, yonidagilarni ham olib keladi. Bundan esa har ikki tomon ham yutadi.

Fikrimcha, madaniyat birinchi navbatda istirohat bogʻlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Shu sabab avvalo, bogʻlarda oʻrindiqlarni koʻpaytirish kerak. Selfilar uchun suratga tushadigan joylarni uyushtirish kerak. Chet elda shunaqa.

Istirohat bogʻlari yaqinida oshxonalar boʻlmasligi kerak. Ayniqsa, spirtli ichimliklarni butunlay taʼqiqlash zarur. Shaxmat, shashka, tennis oʻynaydigan, bitta asbobda musiqa chalib turadigan joylar ochish kerak.

- Odamlarning farovonligi oshib, muhtojligi kamaymoqda va mos ravishda oqibat ham susayib bormoqda, nazarimda, - deydi **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori Mamayunus Pardayev**. - Shu tufayli har bir hududda madaniyat va maʼnaviyat maskanlari barpo qilinishi kerak. Bunda uzluksiz ravishda tarbiyaviy

ahamiyatga molik tadbirlar oʻtkazib borilishi lozim.

Vazirlar Mahkamasining farmoyishi bilan Oʻzbekistonda adabiyot, madaniyat, sanʼat, ilm-fan sohasi yetuk namoyan-dalarining tavallud sanalarini keng miqyosda nishonlash belgilangan. Savol tugʻiladi, nega shu ishni Samarqandda oʻtkazish mumkin emas? Nima, koʻhna kentimizda koʻzga koʻringan ziyolilar, oʻz sohasining yetuk vakillari chiqmaganmi? Ularning bugun oramizda boʻlganlari bilan uchrashuvlar, tarbiyaviy ahamiyatga molik kino va teatrlarni namoyish qilish, kitobxonlikni yoʻlga qoʻyish va bitta kitobni ommaviy muhokama qilib, uning ahamiyatiga alohida eʼtibor qaratish tadbirlarini oʻtkazib borish kerak, deb oʻylayman.

Bu ishni mahalliy hokimliklar, madaniyat boshqarmasi bilan mahallalarda, taʼlim maskanlari, korxona va tashkilotlarda tashkil qilsa boʻladi. Ayni masala kasb madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Bu yoʻnalishda har bir kasb sohibi birinchi oʻringa oʻzini emas, ungani tushib turganlarni qoʻyishi kerak. Uning talabini qondiradigan koʻnikmaga ega boʻlishi lozim. Qolaversa, har bir kasb boʻyicha madaniyat nizomi ishlab chiqilishi kerak. Unda albatta, isteʼmolchiga ustuvorlik berilishi shart. Oʻz navbatida kasbiy madaniyatga amal qilishni nazorat qilish, muayyan vaqt oraligʻida faol va ibratlilarni ragʻbatlantirib borish ham muhim.

Koʻp yillik tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkin: har qanday kasb egasi xiyonat va jinoyat bu dunyoda qonun oldida, u dunyoda Alloh oldida javobgarlikka sabab boʻlishini qalban his qilishi kerak. Bunga erishish uchun korxona va tashkilotlarda muayyan vaqt oraligʻida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish mumkin.

Darvoqe, teatr sanʼati haqida gap ketganda, u endi yoʻqoladi, deyilgan gap-soʻzlar bolalab qolgandi. Lekin koʻrdikki, tarbiyaviy ahamiyati, jamiyatga taʼsiri oʻlaroq u bardavom. Demak, "Otarlar soʻzi - aqlning koʻzi" mavzusiga yaqin boʻlgan, tarbiyaviy ahamiyatga molik spektakllarni koʻpaytirish lozim. Shu yoʻnalishdagi turli ijodkorlarni birlashtirish maqsadga muvofiq.

Bu ishda albatta, madaniyat boshqarmasi masʼul-lari, teatr jamoasi va boshqa tegishli tashkilotlarning faolligi talab etiladi.

Rost, madaniyat sohasi vakillari yengini shimarib ishlashlariga toʻgʻri keladi. Misol uchun, nomoddiy madaniy meros - baxshichilik, xalq ogʻzaki ijodining boshqa yoʻnalishlarini tiklash va ularni sayyohlarga namoyish qilishni yoʻlga qoʻyish kerak. Bu bir tomondan, turizm rivojiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ijodiy jamoalarning oʻz ustida ishlashlari, izlanishlari uchun turtki boʻladi.

Bolalar musiqa va sanʼat maktablari, kuy-qoʻshiq ijrochilari boʻyicha oʻrin takliflar bildirildi. Bunga qoʻshimcha sifatida aytish mumkinki, nomoddiy madaniy meros boʻyicha, shu jumladan, raqs sanʼati boʻyicha mutaxassislar tayyorlash eʼtibordan chetda qolayotgandek, nazarimda.

- Inson hayotining barcha sohaları - iqtisod, siyosat, qishloq xoʻjaligi, qurilish yoki taʼlim sohasi boʻlsin, ularning barchasi milliy madaniyat komilligiga tayanadi, - deydi **Samarqand davlat universiteti professori Suyun Karimov**. - Teatr

"Oyni etak bilan yopib boʻlmaydi. Globalizn degan narsa bor. Toʻgʻri, Yevropada ham Amerika filmlariga qarshi kurashamiz, deb kinoteatrlarda faqat oʻzining milliy kinolarini koʻrsatadi. Bizda ham oʻzimizning zamonaviy sanʼatimiz kuchli rivojlanishi kerak. Kinolarimiz haqiqiy sanʼat asari darajasiga koʻtarilishi kerak, shunda kurashish mumkin. Taʼqiqlash - bu kurash emas".

Xulosa qilishga arziydigan bu intervyu taniqli ijodkor tomonidan BBC telekanaliga berilgan. Siz esa shoshil-mang. Chunki shu oʻrinda yaqinda bir tanishimning kuyinib aytganlarini keltirishni lozim topdim. "Qaysi lapar yoki boshqa milliy qadriyatimizni ijtimoiy tarmoqda TOP boʻlganini koʻrgansiz? Ana vayn qadriganlar xorijliklar ham koʻrish mumkin boʻlgan turli sanʼat asarlarimizni, kerak boʻlsa, muzeylarimiz va milliy anʼalarimizdan kichik formatdagi videolar qilishsin. Qayerdagi betayin narsalarnimas, shunaqa ish qilib, ham savob, ham olqish olsun".

Rost, eng katta muammo — milliy madaniyatimiz zamonaviy mediamakonda munosib oʻrin egallamagani-da. Mutasaddilar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari toʻliq joriy etilmagani sabab sohani xalqaro madaniy jarayonlarga integratsiya qilinmayapti, deydi. Biroq izlagan imkon topadi. Yuqorida tanishim aytgandek buning uchun bitta qoʻl telefoni yetarli. Bu orqali milliy ijodiy mahsulotlarni eksport qilish tizimini yaratish mumkin.

Xullas, biz bilganimizcha qogʻoz qoraladik. Xoʻsh, aytilganlardan nima xulosa qilamiz, aniqrogʻi, kim xulosa chiqaradi?

Dolzarb mavzuda muhokama

sanʼati esa asrlar davomida insonlarni tarbiyalovchi, maʼnaviyatini shakllantiruvchi qudratli vosita hisoblanib kelgan. Shu sababli sahna sanʼati mavqeini yanada oshirish, moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasida takomillashtirish, zamonaviy binolarni qurib foydalanishga topshirish boʻyicha davlatimiz va huku-matimiz tomonidan juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Bir qarashda sohada muammo yoʻqdek. Lekin katta teatr boʻlgani bilan zamonga mos pesalar bormi, degan savol tugʻiladi. Samarqandning oʻzida qancha dramaturg bor? Yozuvchilar uyushmasining viloyat boʻlimi shu haqda bosh qotirishi, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda havaskorlar oʻrtasida tanlovlar tashkil qilishi kerak emasmi?

Bu ish ham boʻldi, deylik. Spektaklga to-moshabin kelishini kutish shartmi? Nega mass-mediaa yangi sahnalashtirilgan yoki sahnaga chiqarilayotgan asar haqida bir jumlagu guvoh boʻlmaymiz? Axir ayni zamonda reklamasiz, targʻibotsiz ishlash mumkinmi?

Bugungi kunda teatr nimasi bilandir jamoatchilik-ni jalb qila olyaptimi? U berayotgan maʼnaviy ozuqa nimalardan iborat?

Madaniyatni rivojlantirishda "Samarqand tajribasi" boʻlishi kerak, deyaipmiz. Nazarimda, bunga erishish uchun yuqoridagi savollarga javob topish kerak.

Aslini olganda, hayotda madaniyat va sanʼat sohasi daxldor boʻlmagan kasb yoki mutaxassislikni topish qiyin. Quruvchi madaniyatli boʻlsa, oʻz ishini sanʼatkorona bajaradi. Ustoz komillikka erishgan boʻlsa, shogirdlarini maʼnaviyatning yuksak choʻqqilariga boshlaydi.

Shu bois har bir kasb etikasi, madaniyati boʻyicha doimiy ish stoli ustida turadigan va choʻntakka solib yurish mumkin boʻlgan hajmdagi kichik qoʻllanmalar yaratish kerak. Bu qoʻllanmalarning har bir kasb egasi qoʻliga yetib borishini va har yili nashr etilishini yoʻlga qoʻyish zarur. Xodimlarni belgilangan muddatlarda, ayniqsa, attestatsiyadan oʻtkazishda shu qoʻllanma asosida imtihon qilish ham foydadan xoli boʻlmaydi.

Aslida bu tajriba rivojlangan xorij davlatlarida qoʻllanib kelinadi. Biz nimagadir bu ishga mayda masala sifatida qarashdan voz kecholmayapmiz.

- Bugun biz Uchinchi Renes-sansni oldimizga katta maqsad qilib qoʻydik, - deydi **Samarqand davlat universiteti professori Farhod Nabiye**v. - Bu boradagi islohotlarda madaniyat va sanʼat sohasi xodimlari eng old safda boʻlishi kerak. Toʻgʻrirogʻi, birinchi galda biz, oʻzimiz bu maqsad mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak. Fuqarolarda ham jamiyat rivojida, Uygʻonish davrida mening ham hissam boʻlishi kerak, degan fikrni shakllantira olsak, rejalarimiz, itilishlarimiz yanada tez va yuqori samara bera boshlaydi.

Shu bois avvalo, oʻzimizga savol berishni oʻrganishimiz kerak. Biz nimani istayapmiz oʻzi? Bizga milliylik, oʻzlikni anglash kerak boʻlmasa, nima kerak? Nima bizni asrab qoladi? Faqat moddiyat bilan ehtiyojlar qondirilmasligini, aksincha, jamiyatimiz madaniyati mening, olamning, jamoam va mahallamning madaniyati, maʼnaviyat va maʼrifatidan tashkil topganini anglayapmizmi?

Shu nuqtai nazardan madaniyatga daxl qilish oʻzimizga — yoshlarimiz kelajagiga dushmanlik ekanligini tushunib olishimiz shart. Moddiyat ortidan yugurib, maʼnaviyatni, madaniyatni qurbon qilmasligimiz shart!



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 363 nusxada chop etildi. Buyurtma 516. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda